Qayta tiklanuvchi energiya sohasi rivoji mamlakatning geografik joylashuvi, tabiiy resurslar mavjudligi va moliyaviy imkoniyatlariga bog'liq. Ya'ni mazkur yo'nalishda hamma bir xil imkoniyatga ega emas. Masalan, dunyo miqyosida olib qaraydigan bo'lsak, Islandiya geotermal – yer bag'ridagi issiqlikdan foydalanish borasida keng salohiyatga ega, Italiya va Ispaniyada quyosh energiyasi bo'yicha ustunlik mavjud. Daniya, Niderlandiya va Germaniya shamol energiyasidan foydalanish bo'yicha Yevropa Ittifoqida yetakchilik qiladi. AQSh, Xitoy, Yaponiya kabi davlatlar esa quyosh, shamol va suv energetikasini strategik yo'nalish deb belgilagan. Zero, tiklanuvchi energiya dunyo miqyosida ekologik tanazzulning oldini olish, insoniyat uchun toza atmosfera havosi, sof va xavfsiz tabiiy muhitni asrab qolish, Yer yuzida mavjud fauna va florani keltirib chiqarishga, shu bilan birga, mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlovchi omil bo'lib qolmoqda. Buni 2015-yil 25-sentabrda BMT tomonidan e'lon qilingan "Barqaror rivojlanish maqsadlari"ning dunyodagi iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik vaziyatni har tomonlama yaxshilash orqali butun insoniyatning turmush tarzi hamda farovonligini oshirishga, adolatli va barqaror jamiyat qurishga qaratilgan global chaqirig'i misolida ko'rishimiz mumkin [1].

Yashil energetikani Qozog'iston misolida ko'radigan bo'lsak, qayta tiklanuvchi

energetikani rivojlantirish va foydalanishni rag'batlantirish uchun keng huquqiy asoslar yaratilmoqda. Normativ hujjatlar asosan soha rivoji uchun mahalliy va xorijiy sarmoyalarni jalb qilish, barqaror energetika tizimini ta'minlash va xalqaro ekologik standartlarga moslashishga qaratilgan. Albatta, noan'anaviy energiyaga o'tishda muammolar ham mavjud bo'lib, Qozog'iston ularni hal qilish va qonunchilikni yanada takomillashtirish orqali Markaziy Osiyo davlatlari orasida yetakchi bo'lmoqda.

O'zbekiston ham o'zining geografik joylashuvi va iqlim sharoitiga ko'ra tiklanuvchi energiya manbalarini yaratish va rivojlantirish borasida ulkan salohiyatga ega. Davlatimiz tomonidan olib borilayotgan strategik islohotlar va loyihalar orqali mamlakatda energiya xavfsizligiga erishish, mavjud ekologik muammolarni hal etish va yashil iqtisodiyotga o'tishda bosqichma-bosqich odimlab, ildamlab borish maqsadlari amalga oshirilmoqda. Bu yo'lda yuzaga kelayotgan muammolar hamda ularning huquqiy yechimlarini qonunchilik nuqtayi nazaridan ko'rib chiqsak va tahlil qilsak.

Tadqiqot natijalari tahlili

Qayta tiklanuvchi energiya manbalarini yaratish, aholiga yetkazib berish, sotish va sotib olish, atrof-muhit bilan bog'liqlik masalalari bugungi kunda o'ta dolzarb masaladir. Shu sababli, mavzuning iqtisodiy, huquqiy va ijtimoiy jihatlarini ko'plab xorijiy hamda mahalliy olimlar, davlat arboblari, soha vakillari tomonidan o'rganilgan, hozirgi kunda ham ko'rib chiqilmoqda.

Xususan, quyosh energiyasining texnik salohiyatini baholash, ya'ni quyosh fotoelektr stansiyalarining ko'rsatkichlarini o'rganish va prognozlash bo'yicha N.R. Avezova, N.A. Matchanov, E.Y. Raximov, M.X. Xakimov, N.N. Dalmuradova, M.X. Dehqonovalar ilmiy tadqiqotlar olib borishgan.

T.I. Andreyenko, S.V. Kiselyova, Y.Y. Rafikovalar esa bioenergiyani rivojlantirish uchun resurs bazasini mintaqaviy baholash-

ning uslubiy yondashuvlarini ishlab chiqqanlar. Ushbu baholash sxemasi o'simlik va chorvachilik chiqindilarining yalpi hamda texnik energiya salohiyatini ketma-ket hisoblashni nazarda tutadi.

V.F. Popondopulo energetika huquqi va energetika qonunchiligi masalalarini, energetik munosabatlarni energiya ishlab chiqarish, uzatish va iste'mol qilish, shu jumladan, elektr energiyasi va uning boshqa turlari bilan bog'liq munosabatlar sifatida o'rgangan. O.A. Gorodov esa energetika huquqi predmeti sohasining asosiy yo'nalishi – energetika sohasida rivojlanayotgan ijtimoiy munosabatlarni o'rganib, energiya resurslari, energiya turlarini ishlab chiqarish, uzatish va foydalanish, energiyani ishlab chiqarish va ulardan foydalanish bilan bog'liq holda paydo bo'ladigan boshqa munosabatlar, sarmoya kiritish, ekologik talablar va xavfsizlikni ta'minlash bilan bog'liq boshqa masalalarni tadqiq etgan.

Qayta tiklanuvchi – muqobil energiya manbalaridan foydalanish huquqi masalalariga bag'ishlangan ilmiy izlanishlarida respublikamiz olimlari J.T. Xolmo'minov, O.X. Narzullayev, Sh.X. Fayziyev, Y.A. Jurayev, M. Mirzaabdullayeva, N.Sh. Rajabov, D.M. Umarov, G.Sh. Uzakova, D. Mahkamovlar energetika huquqini huquqning muhim instituti sifatida yoritganlar. Ular o'z ishlarida energetika qonunchiligi normalari bilan tartibga solinadigan munosabatlar doirasini, xususan, an'anaviy va muqobil energiya manbalari, energiya resurslarini qidirish, qazib olish, ishlab chiqarish, qayta ishlash, yetkazib berish, saqlash, tashish bilan bog'liq holda yuzaga keladigan huquqiy munosabatlar tahlilini o'rganganlar.

Hech kimga sir emas, ayni vaqtda mamlakatimizda elektr energiyasiga talab yildan yilga o'sib bormoqda. Hisob-kitoblarga ko'ra, *O'zbekistonda* bir yilda 10 mlrd dollarlik elektr va gaz iste'mol qilinadi. Shuningdek, bugungi kunda 2-3 mlrd kilovatt soat elektr energiyasiga qo'shimcha talab ham mavjud.

Kelgusi besh yilda bu ehtiyoj ikki barobarga yoki qo'shimcha 10 mlrd kilovatt soatga oshishi kutilmoqda [2].

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekiston MDH davlatlari orasida elektr energiyasi ishlab chiqarish hajmi bo'yicha Rossiya, Ukraina va Qozog'istondan keyin 4-o'rinni egallaydi. Shu bilan birga, O'zbekiston Markaziy Osiyoda o'zaro bog'liq energiya tizimida o'rnatilgan quvvatlarning taxminan 50 foiziga egalik qiladi [3]. Ushbu ko'rsatkich mamlakatimiz iqtisodiyoti jadal o'sayotgani hamda aholining yashash sharoitlari tezroq yaxshilanayotganidan dalolat beradi. Ya'ni oilaning daromadi oshsa, maishiy texnikalar va farzandi uchun kompyuter sotib oladi, har bir xonaga sovutgich va qandil o'rnatadi. Bularning barchasi elektr energiya iste'molida o'z aksini topadi.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 26-mayda qabul qilingan "2017–2021-yillarda qayta tiklanuvchi energetikani yanada rivojlantirish, iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohada energiya samaradorligini oshirish chora-tadbirlari dasturi to'g'risida"gi PQ–3012-sonli qarorida qayta tiklanuvchi, muqobil energiya manbalarini shakllantirish va ulardan foydalanishning huquqiy asoslari yoritib berilgan.

Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasining "Qayta tiklanuvchi energiya bo'yicha xalqaro agentlik ustavini (BONN, 2009-yil 26-yanvar) ratifikatsiya qilish haqida"gi Qonunining qabul qilinishi yashil energiyaga o'tishning iqtisodiy-ijtimoiy hamda huquqiy rivojlanishi uchun turtki bo'ldi.

Vazirlar Mahkamasining "Fotoelektr stansiyalarini tashkil etish uchun qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish va xususiy investitsiyalarni jalb qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 633-sonli qarori respublikamizda yashil energiya manbalarining umumiy hududiy va texnik salohiyatini baholash bo'yicha olib borilayotgan ko'plab tadqiqotlar, tabiat resurslari berayotgan imkoniyatlar mamlakatning yaqin va olis hududla-

rida yetarli ekanligi, ekologik toza va texnik xavfsizligi, energiyaga bo'lgan talabni qondirish hajmi, mamlakatda mavjud energiyaga bo'lgan ehtiyoj, energiya resurslaridan foydalanish strategiyasini uzoq va yaqin istiqbolga mo'ljallab tubdan qayta ko'rib chiqish lozimligini belgilab berdi.

O'zbekiston Respublikasining "Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish to'g'risida"gi Qonuni yashil energiya manbalaridan foydalanish sohasidagi munosabatlarni huquqiy tartibga soluvchi asos bo'ldi. Zero, qonunning 2-moddasida: "Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish to'g'risidagi qonunchilik ushbu qonun va boshqa qonunchilik hujjatlaridan iboratdir", – deb qayd etilgan. Ushbu qonun muqobil energiya manbalarining asosiy tushunchalari, foydalanish sohasini tartibga solish, davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari, sohada davlat boshqaruvi va vakolatlari, sohadagi maxsus vakolatli davlat organlari va ularning foydalanish sohasidagi vakolatlari, sohaning ilmiy-texnikaviy va innovatsion ta'minoti, ishlab chiqaruvchilarning huquqi va majburiyatlari, sohani davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish, taqdim etilayotgan imtiyozlar va preferensiyalar, sohani standartlashtirish va muvofiqlashtirish hamda javobgarlik masalalari belgilab berilgan.

Keyingi muhim hujjat O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4422-sonli "Iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohaning energiya samaradorligini oshirish, energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etish va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirishning tezkor chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori bo'ldi. Unda iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohaning energiya samaradorligini oshirish, energiya tejovchi texnologiyalar va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini keng ko'lamda joriy etish masalalari ko'rib chiqilib, xalqaro tajribaga tayangan holda an'anaviy energetika resurslaridan tejamkorlik bilan samarali foydalanishni ta'minlash maqsadida qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivoj-

lantirishning maqsadli parametrlari va yo'l xaritasi shakllantirilgan. Ushbu harakatlar o'z navbatida iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohaning energiya sarfi hajmini keskin kamaytirish borasidagi ishlarni kompleks tashkil etish, shuningdek, yoqilg'i-energetika resurslaridan oqilona va samarali foydalanishni ta'minlashni yo'lga qo'yadi.

Mamlakatda yashil energiyaga o'tish ekologik xavfsiz va toza bo'lishi darkor, bu borada esa 2019-yil 30-oktabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2030-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5863-sonli Farmoni e'lon qilindi. Unda atmosfera havosiga chiqarilayotgan zararli gazlarni kamaytirish maqsadida elektr energiyasi ishlab chiqaradigan quvvatlarning umumiy tarkibida qayta tiklanadigan muqobil manbalar ulushini ko'paytirish, inshootlarning energiya samaradorligini oshirish chora-tadbirlari, past uglerodli texnologiyalardan (issiqlik nasoslari, qayta tiklanadigan energiya manbalarini) foydalanishni rag'batlantirish; transport vositalarini elektr quvvatiga yoki muqobil yoqilg'iga o'tkazish, yoqilg'ining "Yevro-6" ekologik toifadagi standartlarini qabul qilish kabi atrof-muhit muhofazasi bo'yicha ustuvor yo'nalishlar belgilab berilgan.

Qolaversa, respublikamizda yashil iqtisodiyotga o'tishni jadallashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yilda 28-yanvarda qabul qilingan PF-60-sonli "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmonida energiya resurslari va tabiiy gaz bozorlarining ijtimoiy himoya kafolatlarini belgilagan holda erkinlashtirib, soha rivoji uchun xususiy investisiyalarni keng jalb qilish masalasi alohida ta'kidlab o'tilgan. Taraqqiyot strategiyasidagi iqtisodiyotni elektr energiyasi bilan uzluksiz ta'minlash maqsadida iqtisodiyotda energiya samaradorligini 20 foizga oshirish, 2026-yilga kelib elektr energiyasi ishlab chiqarish

ko'rsatkichini qo'shimcha 30 mlrd kilovatt soatga oshirib, jami 100 mlrd kilovatt soatga yetkazish vazifalari qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 83-sonli "2030-yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirishni jadallashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori zamirida BMTning Barqaror rivojlanish dasturida belgilangan ustuvor maqsadlari milliyllashtirildi. Xususan, dasturning 7-maqsadi arzon, ishonchli, barqaror va zamonaviy energiya manbalaridan barcha uchun umumfoydalanish imkonini ta'minlashga qaratilgan bo'lib, unda 2030-yilgacha jahon energetika muvozanatida qayta tiklanuvchi manbalardan olinadigan energiya ulushini sezilarli darajada ko'paytirish, energiya samaradorligini kuchaytirish bo'yicha ko'rsatkichni ikki baravarga oshirish hamda zamonaviy va barqaror energiya bilan ta'minlash uchun infratuzilmani kengaytirish, texnologiyalarni modernizatsiya qilish ishlari ko'zda tutilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Energiya tejovchi texnologiyalarni joriy qilish va kichik quvvatli qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-220-son Farmoni qabul qilinishi sohada energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etish hamda kichik quvvatli energiya manbalarini rivojlantirish jarayonini jadallashtirdi. Farmonda quyosh, shamol va quyosh suv isitish qurilmalarini o'rnatganlik uchun kompensatsiya miqdorlari belgilandi. Quvvati 500 Kvtgacha bo'lgan mikro gidroelektr stansiyalarni qurish uchun taklif etilayotgan loyihalar ro'yxati, biznes loyihalarni moliyalashtirish sxemasi, energiya samaradorligi quyi "D" va undan past toifadagi maishiy elektr priborlarining taqiqlangan ro'yxati shakllantirildi.

Mamlakat rahbarining "2023-yilda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi

PQ-57-son qarorida soha rivoji uchun yaqin kelajakdagi rejalar, amaliy ishlar dasturi va yo'l xaritalari o'z aksini topdi. Jumladan: 2023-yilda qurilishi rejalashtirilgan davlat xususiy sherikchilik shaklidagi yirik quyosh va shamol elektr stansiyalari loyihalari va ularni elektr uzatish tarmoqlariga ulash loyihalarining manzilli ro'yxati; Ijtimoiy soha obyektlari, davlat idoralari, tadbirkorlarning bino va inshootlari va aholi xonadonlarida qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalarini o'rnatish ish rejaları belgilab qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasi Energetika vazirligining bergan rasmiy ma'lumotiga ko'ra, 2024-yil Ozbekistonda qayta tiklanuvchi energiya manbalarining (quyosh va shamol) ulushini elektr energiyasi ishlab chiqarish umumiy hajmida 18 foizga yetkazish rejalashtirilgan edi. Xususan, 2030-yilgacha 25 GVt quvvatga ega shamol va quyosh elektr stansiyalarining ishlashi hisobiga mamlakat umumiy energiya balansining 40 foizini tashkil etishi kutilmoqda. Vazirlik hisobotiga ko'ra, 2024-yilning birinchi yarmida quyosh va shamol elektr stansiyalari 1 mlrd 600 mln kVt soat, gidroelektr stansiyalari esa 4,1 mlrd kVt soat, jami 5,7 mlrd kVt soat elektr energiyasi ishlab chiqardi. Qayta tiklanuvchi energiya ulushining ortishi hisobiga 1mlrd 727 ming kub metr tabiiy gaz tejalishiga erishildi. Atmosfera havosiga 2 mln 400 ming tonnaga yaqin zararli gazlar chiqishining oldi olindi [4].

Markaziy Osiyoning eng yirik davlati bo'lgan *Qozog'istonda* qayta tiklanadigan energetikani rivojlantirish uchun barcha shart-sharoit mavjud va buni respublika alaqachon tushunib yetgan. Qozog'istonda 2009-yilda "Qayta tiklanadigan energiya loyihalarini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi qonun qabul qilingan edi. Qozog'istonda birinchi shamol elektr stansiyasi 12 yil avval qurilgan. 2013-yilda esa respublikada yashil iqtisodiyotga o'tish konsepsiyasi qabul qilindi. Ushbu qonun hujjat-

larining qabul qilinishi o'z navbatida mamlakatda muqobil energiya manbalarini yaratish sohasining qonuniy asosi bo'lib xizmat qildi.

Qozog'iston juda arzon ko'mirning katta zaxiralariga ega, bu borada u energetika sektorining katta qismini (elektr energiyasining 70 foizigacha) egallaydi. Ammo 2060-yilga borib, mamlakat hukumati ko'mirga qaramlikni bosqichma-bosqich kamaytirish orqali uglerod neytralligiga erishish niyatida: 2030-yilga borib Qozog'iston energiya balansida ko'mir ishlab chiqarish ulushini 40 foizgacha kamaytirish rejalashtirilgan. Xuddi shu yilga borib muqobil energiya ulushini hozirgi 3 foizdan 15 foizga, 2050-yilgacha esa 50 foizga yetkazish vazifasi qo'yilgan.

Mamlakat energetika balansida gidroenergetika RESlar orasida yetakchi bo'lsa-da, Qozog'istonning quyosh energiyasi bo'yicha salohiyati mintaqada eng yuqori hisoblanadi. Shamol energetikasini rivojlantirish istiqbollari ham yuqori. Mamlakatda bioenergetika sekinroq rivojlanmoqda. Qozog'iston ham "yashil" vodorod ishlab chiqarish istiqbollari ko'rib chiqilmoqda. O'tgan yili Qozog'istonda umumiy quvvati 385 MVt bo'lgan 12 ta qayta tiklanuvchi energiya obyekti foydalanishga topshirilgan bo'lsa, joriy yilda 15 ta obyektni ishga tushirish rejalashtirilgan. Bu o'z samarasini bermoqda: 2022-yilda qayta tiklanadigan energiya manbalarining elektr energiyasi ishlab chiqarishdagi ulushi 20 foizga oshdi. Shuningdek, BAAning Masdar kompaniyasi Qozog'istonda yirik shamol elektr stansiyasini qurishi ma'lum, biroq qurilish yaqin – 2025-yilda boshlanadi.

Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, 2009-yilda Qozog'istonda "Qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanishni qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi qonun qabul qilingan [5]. Bu mexanizmni hayotga joriy etish uchun 2017-yilda o'zgartirilgan kimoshdi savdosi uchun belgilangan tariflar joriy etildi. Iqtisodiyotda qazib olinadigan yoqilg'ining ulushini kamaytirish bilan bir qatorda, yashil energiyaga o'tish ko'lamini

kengaytirish rejalashtirilgan. Xususan, ko'mir energetika tarmog'ining 70 foizdan ortig'ini tashkil etadi. Qozog'iston hukumati elektr energiyasi ishlab chiqarishda qayta tiklanadigan energiya ulushini 2030-yilgacha 30 foizga oshirishga, 2050-yilga borib esa 50 foizgacha oshirishni rejalashtirgan.

Jumladan, 2024 yilda mamlakatda umumiy quvvati 34,75 MVt bo'lgan uchta yangi obyekt foydalanishga topshirildi. Yil oxirigacha umumiy quvvati 128,4 MVt bo'lgan yana beshta obyekt qurilishi yakunlanishi kutilmoqda, bu esa mamlakatning yashil energiya salohiyatini yanada mustahkamlaydi. Bugungi kunda Qozog'istonda umumiy o'natilgan quvvati 2903,7 MVt bo'lgan 148 ta QTEM obyekti faoliyat ko'rsatmoqda. Ushbu obyektlar uglerod izini kamaytirishda muhim rol o'ynaydi va mamlakatning energiya tizimini ekologik toza va barqaror energiya bilan ta'minlaydi [6].

Qozog'iston Markaziy Osiyoda muqobil energiya manbalari auksionlarini o'tkazuvchi birinchi davlat bo'ldi. Auksion raqobatni rag'batlantiradi, bu esa tariflarning pasayishiga olib keladi, masalan, 2018-2019-yillarda investisiyalarni jalb qilish maqsadida o'tkazilgan auksionda yirik xalqaro banklar (masalan, YTTB, OTB) va xalqaro xususiy kompaniyalar, jumladan, 12 mamlakat: Qozog'iston, Rossiya, Xitoy, Turkiya, Niderlandiya, Fransiya, Birlashgan Arab Amirliklari, Bolgariya, Italiya, Germaniya, Malayziya va Ispaniyadan 145 ta kompaniya ishtirok etdi [7]. Shu vaqtga qadar ikki yil davomida 28 ta auksion o'tkazildi, auksionda muvaffaqiyatli sotilgan umumiy quvvat 1070,82 MVtni tashkil etdi, jumladan, shamol energiyasi – 609,84 MVt, quyosh energiyasi – 356,5 MVt, kichik gidroenergetika – 89,08 MVt va bioenergetika – 15,4 MVt [8]. Shuningdek, bu Markaziy Osiyoda energetika sohasiga xalqaro qiziqishning ortishiga ham yordam berdi.

O'tgan yili Qozog'istonda yashil elektr energiyasining ulushi umumiy ishlab chiqa-

rishning 5,92 foizini tashkil etdi. 2023-yil yakuniga ko'ra, umumiy o'rnatilgan quvvati 495,57 megavatt (MVt) bo'lgan 16 ta qayta tiklanuvchi energiya manbalari obyekti foydalanishga topshirildi.

Ayni paytda Qozog'istonda o'rnatilgan quvvati 2903,54 MVt bo'lgan 147 ta qayta tiklanuvchi energiya obyektlari mavjud: 59 ta shamol elektr stansiyasi, 46 ta quyosh elektr stansiyasi, 39 ta GES va uchta biogaz elektr stansiyasi. 2027-yilgacha qayta tiklanadigan energiya manbalari bo'yicha 599,85 MVt quvvatga ega 25 ta loyihani ishga tushirish rejalashtirilgan. Yuqorida qayd etilganidek, Qozog'iston qayta tiklanadigan energiya manbalari quvvatini 2030-yilga borib jami energiya ta'minotining 15 foiziga, 2050-yilgacha esa 50 foizga oshirishni rejalashtirmoqda [8].

Xulosalar

Mamlakatimizda sohani rivojlantirishga bog'liq qator qiyinchiliklar va to'siq bo'luvchi omillarni bartaraf etish, mavjud qulayliklardan samarali foydalanish birlamchi energiya iste'molida qayta tiklanuvchi energiya manbalari ulushining oshishiga olib keladi. Bunda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni rag'batlantirishning iqtisodiy mexanizmlari joriy qilinishi respublikamizda ushbu zamonaviy, toza, yashil energetika tarmog'ining rivojlanishiga katta turtki bo'lmoqda.

Muqobil energiya manabalarini yaratish va qo'llash borasida amalga oshirilishi kerak bo'lgan ishlar ko'p. Qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish sohasi asta-sekin rivojlanmoqda va kelajakda uning

samaradorligini oshirish, ekologik jihatdan yanada xavfsizligini ta'minlash uchun katta miqdorda sarf-xarajatlar, ilmiy izlanishlar talab etiladi. Bugungi kunda tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishning asosiy muammolaridan biri olingan energiyani saqlash va uzatish hisoblanadi.

Quyida ikki davlat uchun qayta tiklanuvchi energetikaga o'tish istiqbollari yuzasidan tavsiyalarni keltirib o'tamiz:

- Parij kelishuviga muvofiq, davlatlar olgan majburiyatlarni amalga oshirishni jadalashtirish maqsadida rag'batlantiruvchi choralarni qo'llash va asoslarni qonunchilikda aks ettirish;

- soha rivoji uchun yangi texnologiyalarni joriy qilish orqali hududiy energiya eksportini yo'lga qo'yish;

- atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha xalqaro moliya institutlari bilan yaqin hamkorlik qilish.

Tabiatda siyosiy chegaralar bo'lmagani kabi, barqaror rivojlanishga bosqichma-bosqich erishish jarayonida qo'shni mamlakatlarning o'zaro hamkorligi muhim o'rin tutadi. Qozog'iston va O'zbekiston Markaziy Osiyoning yetakchi mamlakatlari sifatida qayta tiklanuvchi energiya manbalarini yaratish, ishlab chiqarish va iste'molchilarga yetkazish borasidagi hamkorlik ishlarini olib borishlari ikkala tomon uchun ham yashil iqtisodiyotga o'tishda foydadan xoli bo'lmaydi. Ayniqsa, sobiq sovet mamlakatlarining huquqiy asoslari va qonuniy o'zaklari uyqashligini hisobga olsak, soha rivoji uchun o'zaro manfaatli kelishuv hujjatlarini ishlab chiqish va tatbiq etish ancha oson kechadi.

REFERENCES

1. Volker R. Evropa v puti energeticheskogo soyuza. Energeiticheskaya strategiya Evropy v mezhdunarodnom prave [Towards a European Energy Union. European Energy Strategy in International Law]. Cambridge University press, 2018, p. 148.
2. O'zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi [Ministry of Energy of Uzbekistan]. Available at: <https://minenergy.uz/uz>

3. UzAnalytics. Central analytical network, Available at: <https://www.uzanalytics.com/iqtisodiet/10226/>
4. O'zbekistonda "yashil" stansiyalar tomonidan ishlab chiqariladigan elektr energiyasi ulushi 25-30 foizga yetdi [The share of electricity generated by "green" plants in Uzbekistan has reached 25-30 percent.]. Available at: <https://www.gazeta.uz/uz/2024/08/05/green-energy/>
5. Zakon RK № 165-IV [Law of the Republic of Kazakhstan No. 165-IV]. Astana, 2019, 2009
6. 2024 god v VIE: klyuchevyye proyekty i dostizheniya Kazakhstana v oblasti zelenoy energetiki [2024 in Renewable Energy: Key Projects and Achievements of Kazakhstan in Green Energy]. Ministry of Energy of the Republic of Kazakhstan. Available at: <https://www.gov.kz/memleket/entities/energo/press/news/details/901374?lang=ru>
7. Renewable energy auctions in Kazakhstan 2018-2022 results. Astana, 2023, pp 12-14. Available at: https://vie.korem.kz/uploads/KZ%20RE%20Auctions%20report%20%202018-2022_May%2018%202023_ENG_final.pdf
8. O podderjke ispolzovaniya vozobnovlyaemykh istochnikov energiyi [On support for the use of renewable energy sources]. Available at: <https://www.gov.kz/memleket/entities/energo/documents/details/18314?lang=ru>
9. Kazakhstan increased production of green electricity by 31 in 23. The Moscow Times. Available at: <https://www.moscowtimes.io/2024/03/28/kazakhstan-narastil-proizvodstvo-zelenoy-elektroenergii-na-31-v-23g-a126049>
10. Perspektiviy razvitiya zelyonoy energetiki v Tsentral'noy Azii [Prospects for Green Energy Development in Central Asia]. *Herald of the Caucasus*. Available at: <https://vestikavkaza.ru/analytics/perspektivy-razvitiya-zelenoy-energetiki-v-centralnoy-azii.html>
11. OON prizyvayet strany Tsentral'noy Azii sovershit' "masshtabnyy energeticheskiy skachok" [UN calls on Central Asian countries to make 'massive energy leap']. UN News. Available at: <https://news.un.org/ru/story/2023/04/1440182>
12. Adrian J.B., Rozmary L., Richard L., Ottinger, Wang XI. The Law of Energy for Sustainable Development. *Towards IUCN Academy of environmental Law Research Studies*, Cambridge, University Press, 2005.
13. Gorordov O.A. Vvedeniye v energeticheskoye pravo [Introduction to Energy Law]. Moscow, Prospekt Publ., 2012.
14. Narzullayev O. Energetika huquqi [Energy Law]. Tashkent, TSUL Publ., 2021.
15. Xolmuminov J.T. Energetika huquqi [Energy Law]. Tashkent, Baktria Press Publ., 2022.

YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

2024-YIL 6-SON

VOLUME 4 / ISSUE 6 / 2024

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.4.6.